Forum doirasida bir qator kelishuvlar imzolandi

Xabar qilganimizdek, 25-26-fevral kunlari Innovatsion rivojlanish vazirligida o’tkazilgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish Forumi doirasida FA ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlari o’z ishlanmalari bilan ishtirok etishdi.

Forum doirasida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va tarmoq hamda hududlardagi muammolar yechimiga qaratilgan loyihalar bo’yicha bir qator kelishuvlar imzolandi. Jumladan, FA Materialshunoslik instituti va “Olmaliq KMK” AJ o’rtasida “Mahalliy xom ashyodan olein kislotasini ishlab chiqarish texnologiyasi” uchun 1 mlrd.so’mlik, “Funksional keramika asosidagi polimerlash uskunasi yordamida lak-bo’yoqlarni polimerlash texnologiyasi” uchun 150,0 mln. so’mlik, “O’zmetkombinat” AJ bilan “Texnogen chiqindilardan payvandlash elektrodlari qobiqlarini ishlab chiqish texnologiyasi” uchun 630,0 mln. so’mlik shartnomalar imzolandi.

Bundan tashqari, Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining “Mahalliy xom-ashyo asosida moylovchi pasta ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish” startap loyihasi uchun 695 mln. 800 ming so’mlik, Bioorganik kimyo institutining "Silga qarshi “Biomayrin 600 mg” original preparatining yakunlovchi klinik sinovlarini o’tkazish va tibbiyot amaliyotida qo’llash uchun 997,4 mln. so’mlik moliyalashtirish to’g’risidagi sertifikat topshirildi.

Shuningdek, Genomika va bioinformatika markazi hamda IPOOO “TEXTILE TECHNOLOGIES GROUP” o’rtasida anglashuv Memorandumi imzolandi.

Shuni aytish kerakki, ў’zaro anglashuv Memorandumi tomonlar o’rtasida o’zaro tenglik va teng sheriklikchilik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda fan va texnika, tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan.